Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda transport sohasidagi budjet dasturlarining samaradorligini baholash muammolari ham qayd etilgan. Yirik infratuzilma loyihalarida xarajatlar oshib ketishi, muddatlarning cho'zilishi va kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraning to'liq ta'minlanmasligi holatlari kuzatiladi. Bu esa budjet dasturlarini shakllantirishda aniq indikatorlar tizimini ishlab chiqish, monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot transport sohasida dasturiy budjetlashtirish amaliyotini o'rganish va qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Tadqiqot doirasida Fransiya va Qozog'iston kabi davlatlarning rasmiy budjet hujjatlari va hisobotlari,

xalqaro moliyaviy institutlar (IMF, OECD, World Bank) hisobotlari hamda ochiq manbalardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Hujjatlar tahlili orqali budjet dasturlarining ierarxiyasi va samaradorlikni baholash amaliyoti o‘rganilib, xorijiy tajribani O‘zbekistonning milliy budjet tizimiga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy amaliyotda transport sohasidagi budjet dasturlari milliy transport siyosatining strategik ustuvorliklarini amalga oshiruvchi asosiy moliyaviy vosita hisoblanadi. Bunda budjet dasturlarining mantiqiy tuzilmasi resurslarni shunchaki taqsimlash vositasi emas, balki davlat boshqaruvining xususiyatlaridan kelib chiqib, strategik maqsadlarni aniq natijadorlik ko‘rsatkichlariga transformatsiya qiluvchi mexanizmdir. Boshqacha aytganda, milliy transport siyosatida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar (masalan, xavfsizlik, mobillik yoki ekologiya) budjet dasturlarining tarkibi va moliyalashtirish hajmlari orqali o‘z ifodasini topadi. Bu borada Fransiya tajribasi yaxshi amaliyot bo‘lib, unda transport sohasidagi budjet dasturlari bevosita mamlakatning iqlim strategiyasi va ekologik majburiyatlarini ijro etishga moslashtirilgan.

Xususan, Fransiyaning “Moliyaviy qonunchilik to‘g‘risida”gi Organik qonunga asoslanuvchi dasturiy budjetlashtirish modeli asosiy e’tiborni mablag‘larni oddiy taqsimlashdan aniq ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga qaratadi (LOLF[6]). Transport sohasida ushbu yondashuv yaqqol “yashil” xarakterga ega. Transport sektori mamlakatda issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan bir qismini tashkil qiluvchi eng katta manbalardan biri bo‘lganligi tufayli, uning chiqindilarini kamaytirish Fransiyaning ekologik va energetik transformatsiyasida muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, transport xarajatlari ham iqtisodiy rivojlanish, ham ekologik barqarorlik va mobillikni ta’minlash maqsadlariga yo‘naltiriladi.

LOLF qonuniga muvofiq, davlat budjeti xarajatlari missiyalar (strategik yo‘nalishlar) bo‘yicha taqsimlanadi. Fransiya budjetining asosiy xususiyatlaridan biri transport va ekologiya sohalarining “Écologie, développement et mobilité durables” (Ekologiya, barqaror rivojlanish va mobillik) makro-missiya doirasida birlashtirilganidir. Bunday tuzilma idoraviy tarqoqlikning oldini oladi, ya’ni avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar va portlarni rivojlantirish xarajatlari bevosita mamlakatning ekologik maqsadlariga bo‘ysundirilgan. Bu transport sohasidagi har qanday budjet qarori atrof-muhitga ta’siri nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilishini anglatadi.

Mazkur missiya tarkibidagi transport sohasiga tegishli 203-“Infratuzilma va transport xizmatlari” (Infrastructures et services de transports) budjet dasturi orqali barcha turdagi transport infratuzilmasini (avtomobil va temir yo‘llari, suv transporti va portlar) rivojlantirish va saqlash xarajatlari moliyalashtiriladi (PAP, 2025[7]).

Quyidagi 1-rasmda 203-“Infratuzilma va transport xizmatlari” budjet dasturining tuzilmasi keltirilgan (1-rasm).




1-rasm. 203-dastur tuzilmasi[1]

1 Manba: muallif ishlanmasi

203-budjet dasturi Fransiyaning «Milliy past uglerodli strategiyasi» (Stratégie nationale bas-carbone, SNBC) doirasida belgilangan iqlim maqsadlariga erishishning asosiy moliyaviy dastagi hisoblanadi. Ushbu strategiya 2050-yilga qadar transport sektorida to'liq uglerod neytralligini (Carbon Neutrality) ta'minlashni nazarda tutadi. Dasturning konseptual asosini transport turlari o'rtasidagi muvozanatni o'zgartirish, ya'ni «modal o'tish» (Modal Shift) jarayonini moliyalashtirish tashkil etadi. Xususan, davlat budjet subsidiyalari va maqsadli investitsiyalar orqali ekologik toza transport turlarining (temir yo'l va ichki suv transporti) iqtisodiy jozibadorligini oshiradi. Bunday yondashuv transport logistikasida avtomobil tashuvlariga bo'lgan qaramlikni kamaytirib, biznes subyektlari uchun past emissiyali transport xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy jihatdan yanada manfaatli qilishga yo'naltirilgan.

Xususan, Yillik samaradorlik loyihasiga ko'ra, 203-dasturning 2026-yilgi budjeti majburiyatlar bo'yicha 9,4 mlrd yevro va to'lov kreditlari bo'yicha 8,1 mlrd yevroni tashkil qiladi. Ushbu mablag'lar asosan mavjud infratuzilmaning ekspluatatsiyasi, xizmat ko'rsatish va modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan (+7,8 foiz), yangi investitsiyalar esa qisqartirilgan (-4,7 foiz). Transport tarmoqlari bo'yicha ("modalité" – modallik nuqtayi nazaridan) temir yo'l transportiga alohida ustuvorlik berilgan (+12,3 foiz), avtomobil transportiga esa mablag' ajratilishi kamaytirilgan (-15,3 foiz) [7].

Fransiya bevosita budjet ajratmalaridan tashqari, Transport infratuzilmasini moliyalashtirish agentligidan (AFITF) ham foydalanadi. Ushbu agentlik "ekologik" daromadlarni (aviachiptalarga soliqlar, pullik yo'l konsessiyalaridan tushumlar) jamlaydi va ularni asosan ekologik toza transport turlari foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu budjet siyosatida "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilining amaldagi yaqqol namunasidir.

Dasturiy budjetlashtirishning eng muhim jihati — bu natijalarga asoslanishdir. 203-dasturning maqsad va indikatorlar tizimi vertikal integratsiya tamoyiliga asoslanib, global iqlimiy maqsadlarni aniq budjet xarajatlarining operatsion samaradorligi bilan bog'laydi. Mazkur dastur doirasida davlat xarajatlarining yo'nalishini belgilab beruvchi beshta asosiy ustuvorlik (Objectif) ajratilgan:

1. Transport sohasining uglerod izini qisqartirish — Stratégie nationale bas-carbone talablari asosida issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va infratuzilma loyihalarida ekologik mezonlarni ustuvor qilish.
2. Infratuzilma sifatini oshirish — yangi qurilishdan ko'ra mavjud transport tarmoqlarini saqlash, modernizatsiya qilish va texnik holatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berish.
3. Modal qayta taqsimlash — avtomobil transportiga qaramlikni kamaytirish, temir yo'l va suv transporti ulushini oshirish orqali barqaror transport tizimini shakllantirish (Elning European Green Deal strategiyasiga muvofiq).
4. Yo'lovchi transport samaradorligi — davlat subsidiyalari hisobidan moliyalashtiriladigan milliy yo'lovchi tashish xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi, muntazamligi va sifatiga erishish.
5. Ijtimoiy barqarorlik — yuk avtomobil transporti sohasida mehnat sharoitlarini yaxshilash va bandlikni qo'llab-quvvatlash orqali ekologik islohotlarni ijtimoiy muvozanat bilan amalga oshirish [7].

Ta'kidlash joizki, mamlakatda transport sohasidagi ekologik va tarkibiy islohotlar kadrlar salohiyatini saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash choralari bilan birga olib boriladi. Shu nuqtayi nazardan, yuk avtomobil transporti haydovchilarining og'ir mehnat sharoitlarini kompensatsiya qilish va sohada bandlikni saqlab qolish davlat siyosatining muhim qismi hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. 203-dastur maqsadlari va samaradorlik indikatorlari[2]

| Maqsad/Indikator | O'lchov birligi va hisoblash | Baholanadigan natija |
|---|---|---|
| Objectif 1. Transport sohasining uglerod izini qisqartirish | | |
| 1.1. "Yo'llarni qurish va kapital ta'mirlashda uglerod izini kamaytirish" indikatori | Yo'l qurilishi va kapital ta'mirlash ishlari jarayonida chiqarilgan $CO_2$ va boshqa issiqxona gazlari miqdori (tonna $CO_2$-ekv.) | Ekologik natija (outcome); infratuzilma loyihalarida kam uglerodli texnologiyalarni joriy etish va investisiya qarorlarini ekologik mezonlar asosida qabul qilishga xizmat qiladi |
| 1.2. "YUk avtomobil transportida issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish" | YUk avtomobil transportidan chiqarilgan issiqxona gazlari miqdori (tonna $CO_2$-ekv.) | Ekologik natija (outcome); yoqilg'i samaradorligi, muqobil yonilg'ilar va logistika qarorlari samaradorligini baholanadi |
| Objectif 2. Transport infratuzilmasi sifatini yaxshilash | | |
| 2.1. Infratuzilmaning texnik holati indikatori | Normativ talablarga javob beradigan infratuzilma ob'ektlari ulushi (foiz) | Aktivlar holati natijasi (output/outcome); saqlash va kapital ta'mirlashga ustuvor investisiya yo'nalishlarini belgilash, infratuzilmaviy xavflarni kamaytirish uchun asos bo'ladi |

2 Manba: muallif ishlanmasi

| | | |
|---|---|---|
| **Objectif 3. Modal qayta taqsimlash va muqobil transport turlarini rivojlantirish** | | |
| 3.1. Kam uglerodli transport turlarining tashishdagi ulushi | Temir yo'l, ichki suv va dengiz transporti orqali tashilgan yuk va yo'lovchilar ulushi (%) | Tizimli natija (structural outcome); avtomobil transportiga qaramlikni kamaytirish va barqaror transport siyosatini baholash uchun xizmat qiladi |
| 3.2. Avtomobil transporti hissasining kamayishi | Avtomobil transporti orqali tashilgan yuk hajmi (tonna-km) | Oraliq natija (intermediate outcome); transport oqimlarini qayta taqsimlash va trafik yukini kamaytirish siyosati samaradorligini ko'rsatadi |
| Objectif 4. Milliy yo'lovchi transport xizmatlari samaradorligini oshirish | | |
| 4.1. Ekspluatasiyaga ajratiladigan davlat hissasi (poezd-kmga nisbatan) | Davlat subsidiyasining bir poezd-kilometrga to'g'ri keladigan miqdori (evro/poezd-km) | Iqtisodiy samaradorlik natijasi (efficiency); subsidiyalarni optimallashtirish va budjet xarajatlarini nazorat qilish uchun qo'llaniladi |
| 4.2. To'ldirilish darajasi | Tashilgan yo'lovchilar sonining mavjud o'rinlar soniga nisbati (%) | Xizmatga talab natijasi (service demand outcome); harakat jadvalini va xizmat hajmini talabga moslashtirishga imkon beradi |
| 4.3. O'z vaqtidalik (≤5 daqiqa kechikish) | 5 daqiqadan oshmagan kechikish bilan amalga oshirilgan reyslar ulushi (%) | Xizmat sifati natijasi (service quality outcome); yo'lovchilar ishonchini oshirish va xizmat ishonchliligini ta'minlash uchun muhim |
| 4.4. Bekor qilingan reyslar ulushi | Ekspluatasiya sabablariga ko'ra amalga oshirilmagan reyslar ulushi (foizda) | Operasion barqarorlik natijasi; kadrlar, texnika va infratuzilma bilan bog'liq tizimli muammolarni aniqlashga xizmat qiladi |
| 4.5. Katta kechikishlar (>30 daqiqa) | 30 daqiqadan ortiq kechikish bilan amalga oshirilgan reyslar ulushi (foizda) | Transport tizimi ishonchliligini baholash imkonini beradi |
| Objectif 5. YUk avtomobil transportida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash | | |
| 5.1. YUk avtomobil transporti haydovchilarini qo'llab-quvvatlash | Ijtimoiy kompensasiya va qo'llab-quvvatlash choralari qamrovi | Ijtimoiy natija (social outcome); ekologik o'tish jarayonida bandlikni saqlash va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan |

Fransiya "yashil budjetlashtirish" (Budget vert) konsepsiyasini dunyoda ilk joriy etgan davlatlardan biri bo'lib, bunda budjet xarajatlariga ekologik ta'sir nuqtayi nazaridan baho berish nazarda tutiladi. Bunda har bir xarajat yoki daromad moddasi iqlimga ijobiy (favorabl) yoki aralash/salbiy ta'sir (mixtes) ko'rsatishi bo'yicha guruhlanadi. Moliya vazirligi tomonidan har yili maxsus hisobot tayyorlanib, qaysi xarajatlar ekologik maqsadlarga xizmat qilayotgani tasniflanadi. Fransiyaning 2026-yilgi budjet loyihasida eng yirik "yashil" xarajatlar yo'nalishi sifatida transport sektori ajralib turadi. Xususan, 2026-yilgi budjet loyihasida transport sektoriga 11,8 milliard yevro, asosan, temir yo'l transportini qo'llab-quvvatlash (5 mlrd yevro), daryo transportini qo'llab-quvvatlash (0,6 mlrd yevro) va jamoat transportini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash (1,9 milliard yevro) hisobiga qulay va aralash xarajatlar to'g'ri keladi (PLF 2026 - 6e édition du budget vert[8]).

Xarajatlarning "ijobiy" va "salbiy" deb rasmiy tasniflanishi hukumatga mablag'larni qayta taqsimlash uchun asos bo'ladi. Masalan, 2026-yilgi budjetda avtomobil yo'llari sohasiga ajratmalar 15,3 foizga qisqartirilishi hisobidan temir yo'llarni moliyalashtirish 12,3 foizga oshirildi [8]. Bu esa o'z navbatida pudratchilarga kuchli bosim vositasini yaratib, xususiy sektorni davlat tenderlarida ishtirok etish imkoniyatini saqlab qolish uchun uglerod izini kamaytirishga majburladi. Shuningdek, parlamentga Fransiyaning iqlim betarafligiga zid bo'lgan loyihalarni samarali to'xtatib qo'yish imkonini berdi.

Qozog'iston Respublikasi Transport vazirligining budjet dasturlari tizimi birinchi navbatda hududlarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash va aholi harakatchanligini oshirishga yo'naltirilgan. Katta hududga ega va aholi zichligi past bo'lgan davlat uchun dasturiy budjetlashtirish transport xizmatlarining jismoniy va iqtisodiy jihatdan qulayligini ta'minlashga doir davlat xarajatlarini amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

"Qozog'iston-2050" strategiyasida belgilangan olis hududlarni hayotiy muhim infratuzilma bilan qamrab olish vazifasi Transport vazirligining budjet siyosati uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Strategik hujjatlarga muvofiq, davlat boshqaruvining asosiy maqsadi mamlakatni global logistika zanjirlariga integratsiyalash va mintaqalarning ichki aloqasini ta'minlashga qodir samarali, xavfsiz va ekologik toza transport infratuzilmasini yaratishga qaratilgan. Shunga ko'ra, budjet dasturlari vazirlikning 2023–2027-yillarga mo'ljallangan rivojlanish rejasida belgilangan transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda transport yo'laklari infratuzilmasini rivojlantirish kabi strategik maqsadlar asosida ishlab chiqilgan [10].

Xususan, vazirlikning 1.1-“Transport infratuzilmasini rivojlantirish” maqsadi doirasidagi budjet dasturlari tizimi ikkita muhim yoʻnalishni qamrab oladi:

1. Mavjud aktivlarni saqlash (003 va 091 dasturlar) yoʻnalishi. Qozogʻiston tajribasida yangi yoʻllar qurishdan koʻra, mavjud tarmoqni normativ holatda saqlash (091-dastur) ustuvor hisoblanadi. Bu bevosita strategiyadagi “hayotiy muhim infratuzilma bilan qamrab olish” tamoyiliga mos keladi — sifatli yoʻl olis hududdagi aholi uchun taʼlim va tibbiyotga chiqish imkoniyatini anglatadi.

2. Zamonaviy urbanizatsiya va mobillik (213 va 034 dasturlar). Astana va Olmaota shaharlarida relsli transportni (Metro, LRT) rivojlantirish strategiyadagi “infratuzilmaviy markazlar” gʻoyasining shahar ichidagi ifodasidir. Bu dasturlar megapolislarni iqtisodiy oʻsish lokomotiviga aylantirish va aholi hayot sifatini oshirishga qaratilgan.

Shuningdek, strategiyada belgilangan “olis hududlarni qamrab olish” vazifasi subsidiyalash dasturlarida namoyon boʻladi. Bu yerda davlat bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan chekinib, ijtimoiy majburiyatlarni birinchi oʻringa qoʻyadi. Jumladan, 013 - “Aviatashuvlarni subsidiyalash” dasturi strategiyadagi “kam zichlikdagi hududlar” uchun muhim boʻlib, kichik aviatsiya yoʻnalishlarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash olis aholi punktlarini mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotidan uzilib qolmasligini kafolatlaydi.

015 - Temir yoʻl tashuvlarini subsidiyalash dasturi. Temir yoʻl Qozogʻistonda asosiy ijtimoiy transport turidir. Budjet mablagʻlari chipta narxlarini aholi uchun hamyonbop darajada ushlab turishga (rentabellik past boʻlsa ham) yoʻnaltiriladi. Bu tizim hududlararo mobillikni taʼminlovchi “moliyaviy koʻprik” vazifasini bajaradi [11].

Qozogʻiston tajribasida dasturlarning ijrosi yakuniy (outcome) va bevosita (output) natijalar orqali baholanadi.

Quyidagi 2-jadvalda budjet dasturlarining maqsadlari va samaradorlik koʻrsatkichlari tizimi keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Transport vazirligining budjet dasturlari ierarxiyasi[3]

| Budjet dasturi (quyi dastur) | Dastur maqsadi | Indikator turi | Amaldagi koʻrsatkich |
|---|---|---|---|
| 003–“Respublika darajasida avtomobil yoʻllarini rivojlantirish” dasturi maqsadi: transkaspiy xalqaro transport yoʻlagi orqali yuk tashish hajmini oshirishga xizmat qiladigan transport yoʻlaklari infratuzilmasini rivojlantirish | | YAkuniy natija (Outcome) | I va II texnik toifalarga oʻtkazilgan respublika ahamiyatiga molik avtomobil yoʻllarining ulushi (2025 – 29,5 foiz, 2026 – 42 foiz, 2027 – 43 foiz) |
| Tashqi qarzlar hisobiga (004), Respublika budjetidan tashqi qarzlarni birgalikda moliyalashtirish hisobiga (016); QR Milliy fondidan maqsadli transfert hisobiga (032) | | Bevosita natija (Output) | Rekonstruksiya qilingan respublika ahamiyatiga molik yoʻllar uzunligi; obʼektni foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi soni; birgalikda moliyalashtiriladigan yoʻl loyihalari soni; loyiha-smeta hujjatlari soni, foydalanishga qabul qilingan obʼektlar, birgalikda moliyalashtirilgan loyihalar soni |
| 013-“Muntazam aviatashuvlarni subsidiyalash” dasturi maqsadi: Aviaxizmatlar sifatini oshirish orqali aholi mobilligi va transport sohasida mehnat unumdorligi oʻsishini taʼminlash | | YAkuniy natija (Outcome) | Tashilgan yoʻlovchilar soni (520 ming – 1600 ming) |
| Respublika budjeti mablagʻlari hisobidan (030) | | Bevosita natija (Output) | Subsidiya bilan taʼminlangan qatnovlar soni, tashilgan yoʻlovchilar soni |
| 093 – “Fuqaro aviasiyasi va havo transportini rivojlantirish” dasturi maqsadi: yoʻlovchilar va yuk tashish hajmini koʻpaytirish, aeroportlar infratuzilmasini rivojlantirish | | YAkuniy natija (Outcome) | YAkuniy natija: aeroportlarida xizmat koʻrsatilgan yoʻlovchilar soni (2025 – 30,5 mln, 2026 – 31,5 mln, 2027 – 32,5 mln) |
| Respublika budjeti mablagʻlari hisobidan havo transporti infratuzilmasini rivojlantirish uchun viloyat budjetlariga maqsadli transfertlar (104) | | Bevosita natija (Output) | Amalga oshirilgan loyihalar soni |
| 213–“SHahar relsli transportini rivojlantirishni taʼminlash” dasturi maqsadi: Olmaota shahri transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuklamani kamaytirish | | YAkuniy natija (Outcome) | Metropoliten qurilishi uchun transfertlar hajmi (2025–2027 – 100 foiz) |

3 Manba: muallif ishlanmasi

| Budjet dasturi (quyi dastur) | Dastur maqsadi | Indikator turi | Amaldagi ko‘rsatkich |
|---|---|---|---|
| QR Milliy jamg‘armasidan ajratilgan maqsadli transfert hisobiga metropoliten qurilishi (103) | | Bevosita natija (Output) | Metropoliten qurilishi bo‘yicha amalga oshirilgan loyihalar soni |

Tahlil qilingan indikatorlar tizimi dasturiy budjetlashtirishning natijadorlik tamoyillarini to‘liq ifoda etmaydi, chunki ko‘rsatkichlar asosan ijro etilgan ishlar va xizmatlar hajmiga (quantity) yo‘naltirilgan. Xususan, 213-dastur bo‘yicha indikator sifatida “transfertlar hajmi (100 foiz)” belgilangani uning mohiyatan resurs (input) yoki jarayon indikatori ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, transport xizmatlari samaradorligi, logistika xarajatlarining qisqarishi va o‘rtacha harakat vaqtlari kabi yakuniy natija (outcome) va strategik ta’sir (impact) ko‘rsatkichlari amaldagi tizimda to‘liq inobatga olinmagan. Bu esa budjet qarorlarini qayta ko‘rib chiqish, ustuvor yo‘nalishlarni o‘zgartirish yoki resurslarni qayta taqsimlashda indikatorlardan samarali boshqaruv vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Fransiya va Qozog‘iston misollarida dasturiy budjetlashtirishning ikki xil — transformatsion (ekologik) va infratuzilmaviy-ijtimoiy modellarini kuzatish mumkin. Ushbu modellarni institutsional jihatdan qiyoslash transport sohasida budjet mablag‘larini boshqarishning eng samarali elementlarini aniqlash imkonini beradi (3-jadval).

3-jadval. Transport sohasida dasturiy budjetlashtirish modellarining qiyosiy tahlili[4]

| Qiyoslash mezonlari | Fransiya (Transformasion model) | Qozog‘iston (Infratuzilmaviy-ijtimoiy model) |
|---|---|---|
| Normativ-huquqiy baza | LOLF (Organik qonun): Budjetni boshqaruvdan natijadorlikka o‘tkazgan qat’iy tizim | Budjet kodeksi: Strategik rejalashtirish va moliyalashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan tizim. |
| Dasturiy ierarxiya | Missiya asosida: Missiya → Dastur → Maqsadlar (Objectifs) → Indikatorlar → Samaradorlik hisoboti (PAP/RAP) | Reja asosida: Strategiya → Rivojlanish rejasi → Budjet dasturi → Quyi dastur → YAkuniy va bevosita natija ko‘rsatkichlari |
| Strategik ustuvorlik | Iqlim betarafligi, ekologik transformasiya, transport turlari o‘rtasidagi muvozanat (modal shift) | Hududiy bog‘liqlik, ijtimoiy mobillik, infratuzilmaviy rivojlanish |
| Indikatorning mazmun-mohiyati | Outcome hamda Impact: Ekologik samaradorlik ($CO_2$ emissiyasi), harakat muntazamligi va ijtimoiy qoniqish | Output hamda Process: Texnik ko‘rsatkichlar (km), loyihalar soni va mablag‘larni o‘zlashtirish foizi |
| Institusional mas’uliyat | Natijaviy javobgarlik: Dastur rahbarlari natijalarga ko‘ra shaxsan mas’ul va resurslarni boshqarishda mustaqil qaror qabul qilish huquqi | Formal javobgarlik: Nazorat asosan moliyaviy intizom va mablag‘ning maqsadli ishlatilishiga qaratilgan |
| Budjetdan tashqari vositalar ahamiyati | Ekologik soliqlar: AFITF agentligi orqali «ifloslantiruvchi to‘laydi» tamoyili asosida moliyalashtirish | Davlat jamg‘armalari: Milliy jamg‘armadan yirik loyihalar uchun ajratiladigan maqsadli transfertlar |
| Natija va moliyalashtirish bog‘liqligi | Natijadorlik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, budjet resurslarini joriy davrda qayta taqsimlash imkoniyati mavjud | Xarajatlarning natijadorlik ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi past bo‘lib, mablag‘larni qayta taqsimlash mexanizmi cheklangan |

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, transport sohasida dasturiy budjetlashtirishning samaradorligi indikatorlar tizimining miqdoriy ko‘rsatkichlardan (output) strategik natijadorlik (outcome) va ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir (impact) ko‘rsatkichlariga transformatsiya bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq. Fransiya tajribasida budjet dasturlarini mamlakatning strategik (shu jumladan, ekologik) maqsadlariga integratsiya qilish va ularni sifat indikatorlari orqali baholash mablag‘lardan foydalanishda yuqori natijadorlikni ta’minlaydi. Qozog‘iston amaliyoti ham transport infratuzilmasini strategik rivojlantirish va ijtimoiy mobillikni ta’minlashda budjet instrumentlarining ahamiyatini tasdiqlaydi. Biroq, Qozog‘iston modelida strategik maqsadlarga erishish indikatorlarining hamon resurs o‘zlashtirish hajmi va texnik ko‘rsatkichlarga (output) bog‘lanib qolayotgani budjet qarorlarining natijaviyligini baholashni cheklaydi.

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekiston transport tizimida davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, budjet dasturlarini shakllantirishda transport xizmatlarining sifati, xavfsizligi va iqtisodiy tejamkorligini ifodalovchi sifat indikatorlari ulushini oshirish hamda budjet xarajatlarining ekologik barqarorlikka

4 Manba: muallif ishlanmasi

ta'sirini baholovchi tizimli monitoring mexanizmlarini joriy etish kabi yo'nalishlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham budjetni shakllantirish tizimiga dasturiy-maqsadli yondashuv bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-388-son[5] qaroriga muvofiq yirik budjet mablag'larini taqsimlovchilarga, shu jumladan, Transport vazirligiga 2026-yil 1-avgustgacha 2027–2029-yillarga mo'ljallangan budjet dasturlarini ishlab chiqib, ularni 2027-yilgi Davlat budjeti loyihasiga kiritish topshirilgan (20-band). Bundan tashqari, dasturiy budjetlashtirish amaliyoti joriy etilgan (etilayotgan) vazirlik va idoralar 2027-yildan boshlab budjet dasturlarini shakllantirishda gender tengligi va «yashil» maqsadlar bo'yicha indikatorlarning inobatga olinishini ta'minlash ko'zda tutilgan (22-band).

PQ-388-sonli qaror bilan tasdiqlangan 2026-yilgi budjet parametrlarining 6-ilovasida Transport vazirligining 2026–2028-yillarga mo'ljallangan budjet dasturlarining maqsadli ko'rsatkichlari keltirilgan [12]. Mazkur indikatorlar tizimi budjet dasturlarida xizmatlar ko'rsatish va bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichlar ustuvorligini ko'rsatmoqda. Dasturlarning sohaviy yoki strategik maqsad miqyosida samarasini baholash uchun indikatorlar tizimini takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan, transport sohasida budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Budjet dasturlarida (masalan, 6.1 va 6.2-son) asosiy indikator sifatida kompensatsiya olgan yo'lovchilarning ulushi va soni aks ettirilgan bo'lib, bu transport xizmatlarining ijtimoiy foydasi, sifati yoki iqtisodiy samaradorligini to'liq ochib bermaydi. Shu bois bevosita natijalar (output) bilan bir qatorda yakuniy natijalarni (outcome) ifodalovchi ko'rsatkichlar, masalan, aholining transport xizmatlariga yetishimlilik darajasi, reyslar muntazamligi, safar vaqti qisqarishi, chipta narxining pasayishi, xavfsizlik ko'rsatkichlari kabi indikatorlar tizimli ravishda joriy qilinishi lozim.

2. Infratuzilmaga doir 6.3–6.5-son dasturlarda ham qurilgan yoki ta'mirlangan obyektlar hajmi bevosita natija ko'rsatkichi sifatida, yakuniy natija esa ularning ijtimoiy va ekologik ta'sirini aks ettirishi lozim. Masalan, xavfsiz infratuzilma hisobiga baxtsiz hodisalar sonining kamayishi (ulush) indikatori, shuningdek, yo'l-transport hodisalarida jiddiy shikastlanganlar soni (transport vositasiga nisbatan) indikatorini kiritish.

3. Transport sohasidagi loyihalar va dasturlar baholanganda ularning nafaqat transport xizmatlari samaradorligi, balki barqarorlik va ekologik ustuvorligi ham hisobga olinishi lozim (Fransiya tajribasi). Jumladan:

o yo'l va transport infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida chiqarilgan $CO_2$ va boshqa issiqxona gazlari miqdori (tonna $CO_2$-ekv.);

o kam uglerodli transport turlari ulushi (foiz);

o transportdan chiqindi va havo ifloslanishini kamaytirish darajasi;

o tabiiy muhit va aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi indikatorlar (shovqin, havo sifati, chiqindilar konsentratsiyasi) kabi yakuniy natijalarni ifodalovchi ekologik ko'rsatkichlar tizimli ravishda kiritilishi maqsadga muvofiq.

4. Dasturlarni baholash va natijalarga asoslangan holda qayta ko'rib chiqish mexanizmlarini normativ tartibda mustahkamlash. Mavjud indikatorlar asosan hisobot va monitoring funksiyasini bajarayotgan bo'lib, ular asosida moliyalashtirish hajmlarini qayta ko'rib chiqish mexanizmi aniq belgilanmagan. Shuning uchun past natijalar qayd etilgan holatlarda dastur parametrlarini qayta ko'rib chiqish, moliyalashtirish hajmlarini optimallashtirish yoki samaradorlik ko'rsatkichlarini qayta shakllantirish bo'yicha majburiy tahlil va xulosa tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq.

5. Dastur natijalari to'g'risidagi hisobotlarni jamoatchilik va parlament bilan ochiq muhokama qilish (Fransiyadagi PAP/RAP tajribasi). Bu jarayon budjet loyihalarini tahlil qilish va taklif berishda fuqarolik institutlarini jalb qilish imkonini beradi, shu bilan birga budjet jarayonini shaffof va "feedback" tizimga asoslangan holga keltiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Bank. (2024). Transport for Development: World Bank Group Transport Strategy 2024-2030. Washington. https://www.worldbank.org/en/topic/transport/overview
2. OECD. (2024). Green Budgeting in OECD Countries: 2024 Edition. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2024/04/green-budgeting-in-oecd-countries-2024_3c771827/9aea61f0-en.pdf

5 https://lex.uz/uz/docs/-7959569

3. International Transport Forum (ITF). (2024). Performance-Based Contracts in Public Transport: International Best Practices. Paris: ITF/OECD. https://www.itf-oecd.org/future-public-transport-funding
4. Cook, K. E. (1969). Application of Program Budgeting to Transportation. Highway Research Board. https://onlinepubs.trb.org/Onlinepubs/hrr/1969/288/288-001.pdf
5. Бондарев, А. (2020). Направления повышения эффективности расходов бюджета на поддержку транспорта. https://cyberleninka.ru/article/n/napravleniya-povysheniya-effektivnosti-rashodov-byudzheta-na-podderzhku-transporta
6. Loi organique n° 2001-692 du 1er août 2001 relative aux lois de finances (LOLF). https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000000394028
7. Projet annuel de performances (PAP) – Mission “Écologie, développement et mobilité durables” (Programme 203). Ministère de l’Économie et des Finances. https://www.budget.gouv.fr/documentation/documents-budgetaires/exercice-2026/projet-loi-finances-les/plf-2026-projets-annuels/budget-general/ecologie-developpement-mobilite
8. République française. PLF 2026 - 6e édition du budget vert. https://www.budget.gouv.fr/reperes/budget_vert/articles/plf-2026-6e-edition-budget-vert
9. Бюджетный кодекс Республики Казахстан. https://adilet.zan.kz/rus/docs/K2500000171
10. План развития Министерства транспорта Республики Казахстан на 2023 - 2027 годы. https://www.gov.kz/memleket/entities/transport/documents/details/563894?lang=ru
11. Республиканский бюджет (2026), бюджетные программы Министерства транспорта. https://budget.egov.kz/budgetprogram/budgetprogram?govAgencyId=6
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-388-son qarori // https://www.lex.uz/ru/docs/7959569

muhandislik & iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**